



**TILLARNING ARALASHUVI: PIJIN VA KREOL TILLAR**

**Boltayeva Madinabonu Dilmurod qizi**

*Kattaqo ‘g‘on Davlat pedagogika instituti*

*4-bosqich talabasi*

**ANNOTATSIYA;** *Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan tillar kontaktining natijalari — pijin va kreol tillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tillarning prepijin bosqichidan to to‘laqonli kreol tillariga aylanishigacha bo‘lgan tadrijiy rivojlanish jarayonlari, ularning strukturaviy xususiyatlari hamda leksifikator tillarning ta‘siri ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, jahon lisoniy xaritasida ushbu tillarning tarqalish geografiyasi va bugungi kunda turli jamiyatlarda tutgan ijtimoiy-huquqiy maqomi yoritib berilgan. Maqolada pijin va kreol tillarining shunchaki “aralash nutq” emas, balki murakkab ijtimoiy-tarixiy evolyutsiya mahsuli ekanligi ilmiy asoslab beriladi.*

**Kalit so‘zlar:** *sotsiolingvistika, tillar kontakti, pijin, kreol tillari, prepijin, leksifikator til, kreolashuv, lingva-franka, kontaktologiya, lisoniy vaziyat.*

**ANNOTATION:** *This article analyzes pidgin and creole languages as outcomes of language contact, one of the key areas of sociolinguistics. The study examines the gradual developmental processes of these languages, from the pre-pidgin stage to their transformation into fully developed creole languages, along with their structural features and the influence of lexifier languages. In addition, the article discusses the geographical distribution of these languages on the world’s linguistic map and highlights their current socio-legal status in different societies. The paper scientifically substantiates that pidgin and creole languages are not merely “mixed forms of speech,” but rather the result of a complex socio-historical evolution.*

**Keywords:** *sociolinguistics, language contact, pidgin, creole languages, pre-pidgin, lexifier language, creolization, lingua franca, contact linguistics, linguistic situation.*

**АННОТАЦИЯ:** *В данной статье анализируются пиджинные и креольские языки как результаты языкового контакта — одного из важных направлений социолингвистики. В исследовании рассматриваются поэтапные процессы их развития от препиджинной стадии до формирования полноценных креольских языков, их структурные особенности, а также влияние языков-лексикаторов. Кроме того, освещается география распространения этих языков на мировой лингвистической карте и их современный социально-правовой статус в различных обществах. В статье научно обосновывается, что пиджинные и креольские языки являются не просто «смешанной речью», а продуктом сложной социально-исторической эволюции.*

**Ключевые слова:** *социолингвистика, языковой контакт, пиджин, креольские языки, препиджин, язык-лексикатор, креолизация, лингва франка, контактология, языковая ситуация.*





## **KIRISH**

Sotsiolingvistika fanining eng muhim yo‘nalishlaridan biri — bu tillarning o‘zaro ta’siri va tillar kontaktining ijtimoiy natijalarini o‘rganishdir. Turli madaniyat va tillarning uchrashishi natijasida yuzaga keladigan pijin va kreol tillari jamiyatda muloqot ehtiyojlarini qondirishning o‘ziga xos mexanizmlari hisoblanadi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, globallashuv va migratsiya jarayonlari kuchaygan bugungi davrda tillarning aralashishi, yangi aloqaviy tillarning shakllanishi va ularning barqarorlashuv jarayonlarini tahlil qilish lingvistik kontaktologiya uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada pijinlarning prepijin bosqichidan to to‘laqonli kreol tillariga aylanishigacha bo‘lgan tadrijiy yo‘li, ularning leksik-grammatik xususiyatlari hamda zamonaviy lisoniy vaziyatdagi o‘rni ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Tilshunoslikda pijin va kreol tillarni o‘rganish 1970-yillardan boshlab tadqiqotchilarning diqqat markaziga tushdi. Jamiyatda muloqot jarayoni murakkablashganda va so‘zlashuvchilar o‘rtasida yagona tushunarli til mavjud bo‘lmagan vaziyatda, o‘zaro aloqani ta’minlovchi yangi vosita yuzaga keladi. Bu vosita to‘laqonli grammatik strukturaga ega bo‘lmagan, lug‘at tarkibi nihoyatda cheklangan yordamchi aralash til — pijindir.

*Pijin: Shakllanish jarayoni va xususiyatlari*

Pijin — turli xalqlar o‘rtasida uchinchi bir muloqot vositasi zarur bo‘lganda yuzaga keladigan, etnik sohibi (ona tilida so‘zlashuvchilari) bo‘lmagan, ijtimoiy funksiyasi cheklangan beqaror til shaklidir. Pijinlar odatda quyidagi bosqichlardan o‘tadi:

Prepjin (Pijingacha bo‘lgan bosqich): Ba’zan maxsus adabiyotlarda bu bosqich “jargon” deb ham ataladi. Biroq, sotsiolingvistik nuqtayi nazardan “jargon” termini ijtimoiy dialektologiya bilan bog‘liq bo‘lgani uchun, bu o‘rinda “prepjin” yoki “erta pijin” atamasini qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Bu bosqichda til hali shakllanmagan, o‘ta beqaror va faqat eng sodda muloqot ehtiyojlarini qondiradi.

Barqaror pijin: Vaqt o‘tishi bilan prepijin ma’lum bir qoidalarga ega bo‘lib, jamoaviy aloqa vositasiga aylanadi.

“Pijin” terminining etimologiyasi haqida turli qarashlar mavjud. Eng keng tarqalgan farazga ko‘ra, u kantoncha (xitoycha) “bei chin” (pul to‘lamoq) yoki inglizcha “business” (biznes/ish) so‘zining buzilgan talaffuzi natijasida kelib chiqqan. Ushbu termin ilk bor 1807-yilda ingliz-xitoy aloqaviy tiliga nisbatan qo‘llanilgan.

*Kreol tillari: Pijindan to‘laqonli tilga o‘tish*

Pijin tillar rivojlanish jarayonida ma’lum bir jamiyatning asosiy muloqot vositasiga aylanib, keyingi avlod uchun ona tili maqomini olsa, ular kreol tillari deb ataladi. Kreol tili pijindan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Lug‘at boyligi: Hayotning barcha jabhalarini qamrab oluvchi keng leksikaga ega bo‘ladi.

Grammatika: Turg‘un va murakkab grammatik qoidalar shakllanadi.

Ijtimoiy funksiya: Nafaqat savdo-sotiq, balki madaniyat, maishiy hayot va hatto adabiyot tili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

*Kreolistika va nazariy yondashuvlar*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Yordamchi aralash tillarni o‘rganuvchi soha tilshunoslikda kontaktologiya yoki kreolistika deb nomlanadi. Ushbu sohaga XIX asrda taniqli tilshunos H. Shuxardt (Hugo Schuchardt) asos solgan bo‘lsa-da, XX asrning 50-yillaridan boshlab sotsiolingvistikaning tarkibiy qismi sifatida mustaqil rivojlana boshladi.

Ushbu tillarning kelib chiqishi borasida ikki asosiy nazariya mavjud:

1. Monogenezis nazariyasi: (D. Teylor, U. Tompson, K. Uinnom) Bu nazariya tarafdorlarining fikricha, hozirgi barcha kreol va pijinlar XVII-XIX asrlarda Yevropa xalqlari bilan savdo-sotiq aloqalari davrida qo‘llanilgan yagona "Lingva-franka" (Franklar tili) asosida shakllangan.

2. Poligenezis nazariyasi: 1970-yillardan boshlab ilgari surilgan bu nazariyaga ko‘ra, har bir kreol tili muayyan hududdagi bir necha tushunarsiz tillarning o‘zaro uchrashishi natijasida mustaqil ravishda pijinga, so‘ngra kreolga aylangan.

Aloqaviy tillar (pijinlar) ongli ravishda, maxsus reja asosida yaratilmaydi. Aksincha, ular so‘zlashuvchilarning bir-birlari tilini to‘liq o‘rganish imkoniyati mavjud bo‘lmagan vaziyatda tabiiy ravishda yuzaga keladi. Ma‘lum bir tilning qisqargan, ya‘ni reduksiyalangan shakli prepijin bosqichiga asos soladi.

Ushbu jarayonda asosiy lug‘at qatlamini ta‘minlab beruvchi til kreolistikada leksifikator til deb ataladi. Odatda, leksifikator til sifatida ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ustun bo‘lgan guruhning tili (masalan, mustamlaka davrida yevropaliklar tili) xizmat qiladi.

Prepijin bosqichining o‘ziga xos xususiyatlari:

Leksik cheklanganlik: Prepijin o‘ta tor muloqot doirasiga ega bo‘lib, uning lug‘at boyligi sanoqli so‘zlar bilan cheklanadi.

Grammatik soddalik: Grammatik qurilishi nihoyatda sodda, ko‘pincha qat‘iy qoidalarga ega bo‘lmaydi.

Fonetik yaqinlik: Prepijinning fonetik xususiyatlari so‘zlashuvchilarning o‘z ona tili me‘yorlariga (artikulyatsiyasiga) ancha yaqin bo‘ladi.

*Pijinning barqarorlashuvi:*

Muloqot ishtirokchilari ushbu vaqtinchalik vositadan muntazam foydalanishi natijasida tilning lug‘at boyligi ortib, grammatik qurilishi turg‘unlasha boshlaydi. Bu jarayon prepijinning barqaror pijinga aylanishiga olib keladi.

Prepijinning barqarorlashuvi davomida turli etnik guruhlarga mansub so‘zlashuvchilarning nutqiy xususiyatlari — etnolektlar bir-biriga yaqinlasha boshlaydi. Shuningdek, alohida shaxslarga xos bo‘lgan nutqiy farqlar, ya‘ni idiolektlar (individual nutqning fonetik, leksik va uslubiy belgilari) bir xillashib, umumiy qolipga tushadi.

Shuni ta‘kidlash joizki, agar prepijinda so‘zlashuvchilar soni doimiy bo‘lmasa yoki ushbu aloqa vositasidan faqat vaqti-vaqti bilan foydalanilsa, til barqarorlashish darajasiga yetmaydi va uzoq vaqt yashab qola olmaydi. Barqarorlashuv uchun ijtimoiy ehtiyoj va doimiy muloqot muhiti asosiy shart hisoblanadi.

*Pijin tillarining tarqalish geografiyasi va tarixiy taraqqiyoti*



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Hozirgi kunda dunyo miqyosida 50 dan ortiq barqaror pijin tillari mavjud bo‘lib, ularning aksariyati Janubiy-Sharqiy Osiyo, Okeaniya, Afrika va Karib dengizi havzasi hududlarida keng tarqalgan. Pijinlarning yuzaga kelishi, odatda, hududlarning bosib olinishi (mustamlakachilik), xalqaro savdo-sotiqning kengayishi hamda aholining ommaviy migratsiyasi kabi global ijtimoiy jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir.

*Pijinlarning funksional turlari va tarixiy misollar:*

Savdo-sotiq pijinlari: Pijinlar rivojlanishining ilk bosqichida tor doiradagi muloqot ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan. Eng qadimiy pijinlar sirasiga Yevropa tillari leksik bazasida vujudga kelgan O‘rtayer dengizi “Sabiri”ni (lingua franca) kiritish mumkin. Sabir XII asrdan boshlab yevropaliklarning arablar, keyinchalik esa turklar bilan muloqotida asosiy vosita bo‘lib xizmat qilgan.

Maxfiy va hududiy jargonlar: Shimoliy Amerikada keng tarqalgan “Chinuk jargon” bunga yorqin misoldir. 1830-yillardan boshlab ilmiy jamoatchilikka ma’lum bo‘lgan ushbu aloqa vositasi dastlab Kolumbiya daryosining quyi oqimida shakllangan, keyinchalik esa Kaliforniyadan Alyaskagacha bo‘lgan ulkan hududda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Shunisi qiziqki, kanadalik baliqchilar hatto radioaloqa orqali maxfiy ma’lumotlarni begonlardan yashirish maqsadida ushbu pijinga murojaat qilishgan.

Imo-ishora pijinlari: Kontaktologiyada nafaqat og‘zaki nutq, balki xalqlararo muloqotda qo‘llaniladigan umumiy imo-ishoralar tizimi ham yordamchi til sifatida qaraladi. Masalan, XIX asr oxirida AQSh g‘arbida turli qabilalarga mansub 100 mingdan ortiq hindu vakillari yagona imo-ishora tili orqali o‘zaro muloqot qilganlar.

Dengiz pijinlari va mustamlakachilik davri:

XVI-XVII asrlardan boshlab dengizchilikning rivojlanishi va Yevropa mustamlakalarining kengayishi yangi port pijinlarining paydo bo‘lishiga turtki berdi. Afrikaning Atlantika sohillari va Osiyo hududlarida yevropaliklar va mahalliy aholi o‘rtasidagi muloqot natijasida Yevropa tillari (ingliz, fransuz, portugal) asosidagi yangi pijinlar maydonga keldi.

Bichlamar (Bislama): XIX asr boshida Okeaniya orollarida ingliz tili asosida shakllangan. Undan dastlab kit ovlovchilar va yog‘och tayyorlovchilar foydalangan bo‘lsa, keyinchalik u mintaqaning muhim aloqa vositasiga aylandi.

Mintaqaviy variantlar: Bichlamar asosida keyinchalik Tok-pisin (Yangi Gvineya), Pijin (Solomon orollari) va Broken (Torres bo‘g‘ozi orollari) kabi mustaqil tillar rivojlandi.

Xirimutu (Hiri Motu): Bu tilning shakllanishi o‘ziga xosdir. Britaniya Papuasida ko‘p tilli politsiyachilar mahalliy motu tili asosida yaratgan “politsiyachilar motusi” keyinchalik to‘laqonli etnik muloqot tiliga aylangan.

*Strukturaviy xususiyatlar:*

Barqarorlashgan pijinlar cheklangan lug‘at boyligiga ega bo‘lsa-da, o‘ziga xos tizimga ega. Pijinning leksikasi asosiy (leksifikator) tildan olingani bilan, uning grammatikasi tubdan farq qiladi. Buni ruscha-xitoycha pijin misolida ham ko‘rish mumkin: “Его сота рубли купеза давай” (Uning shubasiga savdogarlar yuz rubl berishdi). Bu yerda





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



soʻzlar ruscha boʻlsa-da, ularning gapdagi tartibi va morfologik oʻzgarishi rus tili meʼyorlariga mos kelmaydi, balki soddalashtirilgan yangi qoida asosida quriladi.

*Kreollashuv jarayoni va uning ijtimoiy-lingvistik asoslari*

Pijin muayyan sharoitda aʼzolari oʻzaro chambarchas bogʻlangan jamiyatning yagona aloqa vositasiga aylanishi, barcha kommunikativ ehtiyojlarga xizmat qilishi va oilaviy muloqot tili darajasiga koʻtarilishi mumkin. Bunday holatda pijin yangi avlod uchun nafaqat asosiy aloqa vositasi, balki ona tili maqomiga ega boʻladi. Mazkur jarayon sotsiolingvistikada pijinning mahalliylashuvi yoki kreollashuv (kreolizatsiya) deb nomlanadi.

“Kreol” terminining etimologiyasi portugalcha “crioulo” soʻziga borib taqaladi. Bu atama dastlab Braziliya mustamlakalarida qoʻllanilgan boʻlib, “Amerikada tugʻilgan afrikalik qul” degan maʼnoni anglatgan. Pijinlar yevropaliklarning dengiz sohillaridagi mustamlakalari, plantatsiyalardagi metis (duragay) oilalar hamda Yangi Dunyo sharoitidagi qochoq qullar (marunlar) jamoalarida faol kreollashgan.

*Kreol tillarining rivojlanish xususiyatlari:*

Aloqaviy tilning taraqqiyoti natijasida uning lugʻat boyligi ortadi, fonetik va grammatik tizimi murakkablashadi. Ushbu jarayon turli hududlarda oʻziga xos kechgan:

Port shaharlarida: Leksifikator (asosiy yevropacha) tillarning taʼsiri kuchli boʻlgan.

Marunlar (qochoq qullar) jamoalarida: Leksik qatlam va grammatik vositalarning shakllanishida Afrika mahalliy tillarining izi yaqqol namoyon boʻlgan.

Plantatsiyalarda: Qullik sharoitida aloqaviy tillarning oilaviy muloqot vositasiga aylanishi yanada tezlashgan.

Tarixiy misol: Krio tili (Serra-Leone)

Zamonaviy kreol tillari orasida Serra-Leonedagi krio tili (500 mingdan ortiq soʻzlashuvchiga ega) murakkab evolyutsion yoʻlni bosib oʻtgan. XVI asrdan boshlab Fritaun hududida portugal va ingliz pijinlari qoʻllanilgan. XVIII asr oxiriga kelib, bu yerga Shimoliy Amerikadan ozod qilingan qullar, Yamaykadan marunlar va ingliz floti tomonidan qutqarilgan qoratanlilar koʻchirib keltirilgan. Bunday murakkab etnodemografik tarkib krio tilining boy va oʻziga xos qiyofasini shakllantirgan.

*Ijtimoiy diffuziya va tillarning oʻzaro taʼsiri:*

Kreol tili standartining shakllanishida baʼzan ijtimoiy jihatdan yakkalangan yevropaliklar guruhi (“kambagʻal oq tanlilar”) ham qatnashgan. Agar bunday guruhlar son jihatidan kreolzabon aholi bilan teng boʻlsa, ularning oʻzaro muloqoti natijasida “oʻrta koyne” (umumiy til) yuzaga kelgan.

Qiziqarli jihati shundaki, koʻp hollarda madaniy toʻsiqlar kuchli boʻlishiga qaramay, kreol tili oq tanli aholining nutqiga ham sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Xususan, yevropaliklarning farzandlari enagalar va qul bolalari bilan muloqotda boʻlishi natijasida tillar oʻrtasida diffuziya (singishish) yuzaga kelgan. Bu jarayon Yevropa tillarining hududiy variantlari, masalan, AQSh janubiy shtatlaridagi oq tanlilar shevasi, Luizianadagi fransuz tili va Braziliyadagi portugal tili variantlarining shakllanishiga asos boʻlgan.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Shunday qilib, aloqaviy tillarning tadrijiy rivojlanishi ikki yo'nalishda kechadi: birinchidan, tizimning turg'unlashuvi, ikkinchidan, leksik-grammatik qatlamning kengayishi. Kreollashuv — bu dinamik jarayon bo'lib, unda til ayrim ijtimoiy guruhlar uchun ona tili darajasiga ko'tarilsa, boshqalar uchun yordamchi vosita bo'lib qolaverishi mumkin.

### *Kreol va Pijin Tillarining Zamonaviy Lisoniy Vaziyatdagi O'rni*

Bugungi kunda kreol tillari tarqalgan mamlakatlarda lisoniy (lingvistik) vaziyat turlicha namoyon bo'ladi. Ayrim hududlarda kreol tillari aholining mutlaq ko'pchiligi uchun ona tili maqomiga ega (masalan, Gaiti, Yamayka, G'arbiy Hindiston orollari, Kabo-Verde Respublikasi). Boshqa holatlarda esa (Surinam, Serra-Leone, Mavrikiy) ushbu tillar bir nechta yirik etnik guruhlardan tashkil topgan jamiyatda xalqlararo muloqot tili (lingva-franka) vazifasini bajaradi. Shuningdek, Amerika, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Avstraliyaning ayrim davlatlarida kichik guruhlar ichidagi etnik muloqot vositasi sifatida qo'llaniladi.

### *Kengaytirilgan pinyinlar va ularning mavqeyi:*

Kengaytirilgan pinyinlar o'zining kommunikativ imkoniyatlari va grammatik rivojlanishi jihatidan to'laqonli tillarga tenglasha oladi. Bunday tillarning ijtimoiy vazifasi ularning kelib chiqishi bilan emas, balki so'zlashuvchilarning unga munosabati va tilning rasmiy maqomi bilan belgilanadi. Masalan:

Bislama tili: Vanuatu Respublikasining milliy tili deb e'lon qilingan bo'lsa-da, amaliyotda sobiq metropoliya tillari bo'lgan ingliz va fransuz tillari bilan raqobatlashadi.

Solomon orollari pijini: Rasmiy maqomga ega bo'lmasa-da, ommaviy axborot vositalarida (OAV) keng qo'llaniladigan asosiy muloqot vositasidir.

### *Ijtimoiy qarashlar va to'sqinliklar:*

Uzoq vaqt davomida yevropaliklar va ayrim tadqiqotchilar kreol hamda pijin tillarini "buzilgan" ingliz yoki fransuz tillari deb hisoblab kelishgan. Bunday noto'g'ri diskriminatsion qarash mazkur tillarning funksional rivojlanishiga, ularda badiiy asarlar yaratilishiga va ta'lim sohasiga tatbiq etilishiga jiddiy to'sqinlik qilgan. Masalan, 1953-yilda BMT tomonidan Avstraliyaga Yangi Gvineya hududida pijindan ma'muriy maqsadlarda foydalanish taqiqlangan va ushbu tilda dars o'tiladigan maktablar yopilgan.

### *Hozirgi holat:*

Barcha sun'iy va ma'muriy to'sqinliklarga qaramay, bugungi kunda kreol va pijin tillari hayotiyeligini isbotlamoqda. Ushbu tillarda badiiy adabiyot namunalari chop etilmoqda va ular mintaqaviy aloqalarda to'laqonli vosita sifatida xizmat qilmoqda. Xususan, Yangi Gvineya hududida pijin tili boshqa vositachi tillarni (lingva-franka) muomaladan asta-sekin siqib chiqarib, asosiy muloqot tiliga aylanmoqda.

Tillarning aralashuvi va kontaktologiya sohasidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, pijin va kreol tillari shunchaki "soddalashgan" yoki "buzilgan" nutq shakllari emas, balki murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlarning mahsulidir. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



**Tabiiy shakllanish:** Pijinlar ongli ravishda yaratilmaydi, balki muloqot uchun boshqa vosita bo'lmagan sharoitda paydo bo'ladigan dinamik tizimlardir. Ularning rivojlanishi prepijin bosqichidan boshlanib, barqarorlashuv orqali kreol tili darajasiga ko'tariladi.

**Lisoniy mustaqillik:** Kreol tillari pijinlar bazasida shakllansa-da, vaqt o'tishi bilan yangi avlodning ona tiliga aylanishi orqali to'laqonli grammatik va leksik tizimga ega bo'ladi.

**Ijtimoiy nufuzning ortishi:** Uzoq yillar davomida kamsitilgan va "past darajali" deb qaralgan ushbu tillar bugungi kunda ko'plab davlatlarda (masalan, Vanuatu, Gaiti) milliy va davlat tili maqomiga ko'tarilmoqda, badiiy adabiyot va OAV tili sifatida keng qo'llanilmoqda.

**Tadrijiy rivojlanish:** Kreollashuv jarayoni nafaqat yangi tillarni yaratadi, balki mavjud Yevropa tillarining (ingliz, fransuz, portugal) hududiy variantlari va shevalari shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xulosa qilib aytganda, pijin va kreol tillarini o'rganish insoniyatning muloqotga bo'lgan moslashuvchanlik qobiliyatini va tillarning ijtimoiy sharoitga qarab evolyutsiya qilishini tushunishga yordam beradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Hall R. A. Pidgin and Creole Languages. – Ithaca: Cornell University Press, 1966.
  - 2.Muhlhausler P. Pidgin and Creole Linguistics. – Oxford: Blackwell, 1986.
  - 3.Schuchardt H. The Ethnography of Variation: Selected Writings on Pidgins and Creoles. – Ann Arbor: Karoma, 1980.
  - 4.Usmonova S. Sotsiolingvistika. – Toshkent: Universitet, 2014.
- Elektron resurslar:
5. Linguistic Society of America. Pidgins and Creoles.